YANGI O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MARKAZIY OSIYO MINTAQAVIY XAVFSIZLIK MASALALARI

Odilova Umidaxon Burhon qizi

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Islom“iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar”ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar*: Qo’ysinova Fazilat Oripovna,*

O’zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti, siyosiy fanlar doktori.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblangan Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash masalalari va uning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada mintaqadagi integratsiya jarayonlari, transchegaraviy muammolar va yirik kuchlar o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat sharoitida xavfsizlik arxitekturasini shakllantirish muammolari ochib berilgan. Shuningdek, mintaqada barqarorlikni saqlash, gibrid tahdidlar, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashishda Yangi O‘zbekiston diplomatiyasi, xususan, yoshlar diplomatiyasining zamonaviy mexanizmlaridan samarali foydalanish istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, tashqi siyosat, Markaziy Osiyo, mintaqaviy xavfsizlik, tahdidlar, integratsiya, yoshlar diplomatiyasi.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of ensuring regional security in Central Asia, which is a priority of the foreign policy of New Uzbekistan. The article highlights the issues of integration processes, transboundary challenges, and the formation of a security architecture amid geopolitical competition among global powers in the region. Furthermore, it explores the prospects of effectively utilizing the modern mechanisms of New Uzbekistan's diplomacy, particularly youth diplomacy, in maintaining stability, countering hybrid threats, extremism, and radicalism.

Keywords: New Uzbekistan, foreign policy, Central Asia, regional security, threats, integration, youth diplomacy

Аннотация: В данной статье научно-теоретически анализируются вопросы обеспечения региональной безопасности в Центральной Азии, которая является приоритетом внешней политики Нового Узбекистана. В статье раскрываются интеграционные процессы, трансграничные проблемы и вопросы формирования архитектуры безопасности в условиях геополитического соперничества крупных держав в регионе. Также освещаются перспективы эффективного использования современных механизмов дипломатии Нового Узбекистана, в частности молодежной дипломатии, в поддержании стабильности, противодействии гибридным угрозам, экстремизму и радикализму.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, внешняя политика, Центральная Азия, региональная безопасность, угрозы, интеграция, молодежная дипломатия.

KIRISH: Bugungi kunda Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash maqsadida mamlakatlar birgalikdagi yechim topishga harakat qilmoqda.

Mintaqaviy xavfsizlik masalasi tadqiqot obyekti sifatida dolzarb hisoblanib doimo olimlar va mutaxassislar tomonidan o‘rganib kelinadi. O‘zbekistonning mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rnini masala siyosiy fanlar doktori S.A.Mirziyoevning "O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatida xavfsizlik masalalari" asarida keng yoritilib, unda mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda davlatning diplomatik faoliyatiga alohida urg‘u berilgan. Olim O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan chegaradagi xavfsizlikni ta’minlash, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish va mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish orqali barqarorlikni

ta’minlashga bo‘lgan yondashuvlarga tayangan [2]. Bu izlanishlar shuni ko`rsatadiki, O’zbekiston Respublikasi agar istasa har qanday mamlakat bilan kelishuv yo`lini topa oladi va manfaatli aloqalarni yo`lga qo`ya oladi.

2025-yil 16-noyabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining VII Maslahat uchrashuvida “Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasi” qabul qilindi [3]. Ushbu hujjat xavfsizlik xatarlarining katalogini hamda 2026–2028-yillarga mo‘ljallangan amaliy choralar rejalarini o‘z ichiga oladi. BMTning Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy oldini olish diplomatiyasi markazi (UNRCCA) va YXHTning chegara boshqaruvi bo‘yicha forumlari esa mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlamoqda. Prezidentimiz faoliyatining ilk pallalaridanoq qo‘shni davlatlarga tashrif buyurib, siyosiy muloqot va samimiy muno-sabatlar yo‘lini ochdi. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek, “O‘zbekiston hech qachon qo‘shnilari bilan muammoli munosabatlarda bo‘lmasligi kerak.Yaxshi qo‘shnichilik— taqdir masalasi” [4]. Ushbu tamoyil O‘zbekiston tashqi siyosatining fundamental asosi hisoblanib, mintaqa davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro ishonch ko‘p tomonlama hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishini ko‘rsatadi

Avvalo, shuni alohida ta’kidlash joizki, Markaziy Osiyo davlatlari o‘z tashqi siyosatdagi avvalgi yondashuvlarini sezilarli darajada o‘zgartirdilar. Endilikda ular milliy siyosiy va iqtisodiy manfaatlarni ustuvor deb bilib, tashqi hamkorlarni aynan shu mezonlar asosida tanlamoqdalar. Mintaqa bugungi kunda Xitoy, Amerika qo’shma shtatlari, Hindiston, Eron, Turkiya va arab mamlakatlari manfaatlari chorrahasiga aylanib ulgurgan. Bu davlatlar hududda turli iqtisodiy va gumanitar dasturlarni amalga oshirmoqda. Bunday vaziyat esa mintaqa davlatlariga hamkor tanlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Ikkinchidan, mintaqaviy xavfsizlik tizimi bu yerda mavjud bo‘lgan yirik kuchlar o‘rtasidagi raqobat tufayli nisbatan tor doiralarda shakllanib bormoqda. Bu raqobat mintaqadagi siyosiy muhitga bevosita ta’sir

koʻrsatib, xavfsizlik masalalarini murakkablashtiradi. Uchinchidan, mintaqa davlatlari umumiy xavfsizlik tizimining asosiy tamoyillari borasida hanuz yakdil fikrga kela olmayapti. Bunga sabab ularning iqtisodiy, siyosiy va harbiy islohotlarga boʻlgan qarashlari turlicha ekanligidir. Milliy iqtisodiyotlar oʻzaro sust bogʻlangan, eksport tarkibi esa deyarli bir xil. Har bir davlat milliy xavfsizlikka tahdidlarni oʻzicha baholaydi, tashqi siyosatda ustuvor yoʻnalishlarni ham mustaqil ravishda belgilaydi va oʻziga maʼqul boʻlgan kuch markazlariga intiladi.[5] Mintaqaviy integratsiya jarayonini yana-da murakkablashtirayotgan omillar ham mavjud. Jumladan, mintaqada yetakchilik uchun kurash, davlat rahbarlarining shaxsiy ambitsiyalari, hal etilmagan hududiy va chegaraviy nizolar, shuningdek davlat chegaralarini toʻliq huquqiy rasmiylashtirish masalalari bu yoʻldagi asosiy toʻsiqlardan biri boʻlib qolmoqda. Mintaqada xavfsizlikka tahdid soluvchi an'anaviy muammolar bilan bir qatorda, gibrid tahdidlar va g'oyaviy xavflar ham kuchaymoqda. Bunday sharoitda radikalizm va ekstremizm yoshlar ongini zaharlashiga yo'l qo'ymaslik hamda xavfsizlik tizimini mustahkamlash uchun yoshlar diplomatiyasi eng samarali yumshoq kuch (soft power) vositasiga aylanmoqda.

Yoshlar diplomatiyasi zamonaviy xalqaro munosabatlarning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib, yoshlarning davlatlararo aloqalarni rivojlantirishdagi faol ishtirokini anglatadi. Ushbu diplomatiya turi orqali turli mamlakat yoshlari oʻrtasida muloqot, hamkorlik va oʻzaro tushunish kuchayadi. Yoshlar diplomatiyasining asosiy shakllariga xalqaro forumlar, taʼlim almashinuv dasturlari, madaniy loyihalar va qoʻshma tashabbuslar kiradi. Bunday faoliyat yoshlar oʻrtasida munosabatlar uchun mustahkam poydevor yaratadi. Markaziy Osiyo davlatlarida yoshlar diplomatiyasiga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Chunki yosh avlodning dunyoqarashi, bilim va tajribasi mintaqaning kelajak taraqqiyotini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Yoshlar oʻrtasidagi hamkorlik ekstremizm va radikalizmning oldini olishda ham muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://daryo.uz/2025/11/16/markaziy-osiyoda-mintaqaviy-xavfsizlik-va-barqarorlik-kontseptsiyasi-qabul-qilindi/
2. Mirziyoyev.S.A.(2017).O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatida xavfsizlik masalalari.Toshkent:O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ilmiy ommaviy nashrlar.
3. https://docs.un.org/en/A/80/560
4. https://yuz.uz/uz/news/mintaqaviy-xavfsizlik-paradigmasi
5. See: R. Burnashev, “On the Possibility of Having a Regional Security System in Central Asia (Methodological Issues), ” Central Asia and the Caucasus, No. 1 (7), 2001.